

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI TARTIBGA SOLISHNING DOLZARBLIGI

Abbosov Mirsulton Mirsharof o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-1173-6254>

E-mail: abbosovmirsulton@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellektning huquqiy maqomini belgilash masalalari, afzalliklari va ijtimoiy xavflilik masalalari tahlil qilinadi. Sun'iy intellektning jinoiy-huquqiy munosabatlarga sun'iy intellektning kiritish masalalari haqida mulohazalar qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, afzalliklar, xavf-xatar, xalqaro standartlar, konsepsiyalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–6079-son Farmonida "iqtisodiyot tarmoqlarida virtual va to'ldirilgan reallik, sun'iy intellekt, kriptografiya, mashina o'rganishi, katta ma'lumotlarni tahlil qilish va "bulutli" hisoblash texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish"¹ kabi har sohada sun'iy intellekt (keyingi o'rinlarda SI deb yuritiladi) texnologiyalarini tatbiq etish vazifasi qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmonining 65-, 84-maqсадlarida "Ijro ishini yuritish tizimini raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish", "Korrupsiyaga qarshi kurashishga zamonaviy axborot, shu jumladan sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish"² kabi maqsadlar belgilab berilgan. SI, uni tartibga solishga ehtiyoj, uning o'zi va u tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy xavfli qilmishiga baho berish, u tomonidan yoki uning yordamida yaratilgan ixtirolarni patentlash masalasi, SI ni huquq subyekti sifatida e'tirof etish masalalari kundan-kunga dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF–6079-son Farmoni // <https://www.lex.uz/docs/5030957#5031885>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/5841063>

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 4-iyulda Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari Kengashi majlisida a'zo davlatlar rahbarlariga: "Hukumatlarimiz va mutasaddi idoralarimizga ShHTning innovatsion taraqqiyot, raqamlashtirish va robotlashtirish, sun'iy intellekt, biotexnologiya, farmatsevtika va sanoatning boshqa istiqbolli tarmoqlarini qamrab oluvchi Yangi iqtisodiy muloqot dasturini qabul qilish masalasini ko'rib chiqish bo'yicha topshiriq berishni taklif qilaman"³ degan edi. Shundan so'ng SI 2024-yil 18-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida so'zlagan nutqida, "... sun'iy intellekt kabi masalalarda qonunlar qabul qilishga zarurat bor"ligini, jahonda har bir sohaga sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar kirib kelayotganiga e'tibor qaratishimiz kerakligini ta'kidladi⁴. Ma'lumki, yaqin-yaqingacha, kundalik hayotimizda va ishlab chiqarishda robotlar, nobiologik neyron tarmoqlari va SIDan foydalanishni faqat fantastik va erishib bo'lmaydigan hodisa sifatida qaralar edi. Biroq inson faoliyatiga yildan-yilga axborotlashuv va avtomatlashuv bu boradagi tasavvurlarni haqiqatga aylantirmoqda. Shu bilan birga, fan-texnika taraqqiyotining mazkur jarayonlari insoniyatga nafaqat foyda, balki shu bilan birga muayyan xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarishi mumkinligini inobatga olishimiz lozim. Guvohi bo'layotganimizdek, so'nggi paytlarda SI qarorlarining noadekvatligi va xavfli oqibatlari to'g'risida ommaviy axborot vositalari, shuningdek, internet tarmoqlarida tobora ko'proq yoritilib, bu bilan bog'liq bo'lgan jamoatchilik munozaralari shiddatli tus olmoqda. Bu esa, aybdorlarni jazolash va boshqa masalalar yuzasidan qator savollarga yechim izlashimiz kerakligini anglatadi. SI mustaqil harakatlari orqali jinoyat sodir etishi, undan jinoyat quroli sifatida ishlatish, jinoyat qonunchiligi muhofaza qiluvchi obyektlarga zarar yetkazishga qaratilgan SI texnologiyalarini ishlab chiqarish uchun javobgarlik masalasi fuqarolik-huquqiy, balki jinoiy-huquqiy jihatdan tartibga solinishi kerak.

Xalqaro normativ-huquqiy aktlarda, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadi. Mazkur qadriyatni muhofaza qilish uchun turli huquqiy munosabatlar o'rta ga chiqadi. Jumladan O'zbekiston jinoyat qonunchiligi vazifasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida belgilangan bo'lib, shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish,

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a‘zo davlatlar rahbarlari Kengashi majlisidagi nutqi // <https://isrs.uz/uz/ozbekiston-yangiliklari/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-shanxay-hamkorlik-tashkilotiga-azo-davlatlar-rahbarlari-kengashi-majlisidagi-nutqi>

⁴ Saidov A. Kuchli parlament va xalq vakillik organlari – Yangi O‘zbekiston tayanchi // <https://parliament.gov.uz/oz/news/kuchli-parlament-va-xalq-vakillik-organlari-yangi-ozbekiston-tayanchi>

fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir⁵. Mazkur vazifalardan kelib chiqadigan bo'lsak, bugungi kundagi globallashuv jarayonlari, texnika inqirozi jinoyat qonunchiligi muhofaza qiluvchi obyektlarga nisbatan tajovuzlarning yangicha ko'rinishlarini namoyon etadi. Bu esa jinoyat qonunchiligini takomillashtirishni taqozo etadi.

Sun'iy intellekt (SI) – bu kompyuter tizimlari va dasturlariga insonning fikrlash, o'rganish, muammolarni hal qilish, tilni tushunish va qaror qabul qilish kabi aql-idrok faoliyatlarini o'rgatishga qaratilgan texnologiyalar majmuasidir. Bu soha informatika, matematika, lingvistika, neyrobiologiya va falsafaning kesishgan nuqtasida shakllangan.

Sun'iy intellekt tushunchasi ilk bor 1956-yil Dartmut konferensiyasida olimlar tomonidan muhokama qilindi. Shundan so'ng, turli algoritmlar, tilni qayta ishlash tizimlari va robototexnika yo'nalishlarida jadal rivoj boshlandi. 2000-yillardan boshlab, katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) va kuchli hisoblash quvvatlari SI rivojiga yangi sur'at berdi. Sun'iy intellekt xususiyatiga ko'ra, quyidagi konsepsiyalarga asoslanadi.

1. **Mashinali o'rganish (Machine Learning)** – tizimlar o'z tajribasi asosida mustaqil o'rganadi va natijalarni yaxshilaydi.
2. **Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)** – kompyuterlar inson tilini tushunadi, tarjima qiladi, muloqotda bo'ladi.
3. **Kompyuter ko'rish (Computer Vision)** – kompyuterlar rasm va videoni tahlil qiladi, yuz, obyektlarni aniqlaydi.
4. **Ekspert tizimlar** – ma'lum bir sohadagi bilimlar asosida inson kabi qaror qabul qiladi.
5. **Robototexnika** – SI yordamida aqlli robotlar ishlab chiqiladi va boshqariladi.

Bugungi kunda sun'iy intellekt bir qancha sohalarda, xususan tibbiyotda – kasalliklarni erta aniqlash, rentgen suratlarini tahlil qilishda, ta'limda – xususiy o'quv dasturlari, avtomatik baholash tizimlarida, moliyaviy va iqtisodiyotda – firibgarlikni aniqlash, kredit reytingini baholashda, sanoatda – ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, texnik nosozliklarni prognoz qilishda, transportda va logistikada – avtonom avtomobillar, yo'l harakati tahlili o'tkazishda keng qo'llanilmoqda.

Sun'iy intellekt xususiyatlariga muvofiq ba'zi afzalliklarini aytib o'tsak:

- tez va aniq hisob-kitoblar
- ish unumdorligini oshirish
- takroriy ishlarni avtomatlashtirish
- yangi imkoniyatlar yaratish

⁵ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi // <https://www.lex.uz/acts/111453>

Shu bilan birga sun'iy intellektdan foydalanish miqyosi kengayishi ortidan vujudga keladigan ayrim xavf-xatarlar ko'rsatishimiz mumkin:

- ish o'rinlarining qisqarishi
- maxfiylik va xavfsizlik muammolari
- etik masalalar – noto'g'ri qarorlar, diskriminatsiya
- nazoratdan chiqish xavfi
- SI tizimini o'qitish yoki o'z-o'zini o'qitish uchun noto'g'ri ma'lumotlar;
- turli sohalarda intellektual tizimlardan noqonuniy foydalanish;
- SI bilan jihozlangan qurol-aslaha, harbiy va maxsus texnikaga dushman qurolining tasodifiy ta'siri;
- "Mashinalar qo'zg'oloni" ya'ni insoniyatga ongli ravishda qarshilik ko'rsatish.

Sun'iy intellekt – bu zamonaviy texnologiyaning eng ilg'or yo'nalishlaridan biri bo'lib, insoniyat hayotini yengillashtirish va rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, uning to'g'ri yo'naltirilgan holda, etik me'yorlarga rioya qilgan holda rivojlantirilishi – bugungi kunning muhim masalalaridan biridir.

Biz yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda aytishimiz mumkinki, dastlab SI bilan jihozlangan qurollarni ishlab chiqarish, ulardan foydalanish va qo'llashning aniq qoidalari va tamoyillarini xalqaro huquqda mustahkamlash zarur, so'ng ayrim SI bilan jihozlangan qurollarning turlarini tanlab ta'qiqlash kerak degan fikrni ilgari suramiz. Mazur ikki bosqich amalga oshirilmasa, SI bilan jihozlangan barcha qurollarni butunlay taqiqlash zarurdir. Shuni aytishimiz mumkinki, SI bir davlatning jinoyat qonunchiligi bilan tartibga solish samarasi, xalqaro maydonda tartibga solish bilan bir vaqtda bo'lishi lozim. Chunki SI va u orqali ishlovchi texnologiyalar bu global xavfdir. Sini tartibga solish uchun xalqaro normativ tusdagi hujjat ishlab chiqilishi va barcha uchun majburiy tusga ega bo'lishi kerak. Normativ quyidagi qoidalarni o'z ichiga olishi kerak:

SI texnologiyalarini xalqaro maydonda tartibga soluvchi maxsus organ tuzilishi asoslari, huquqlari va majburiyatlarini belgilash

SI bilan jihozlangan qurollarning ayrim turlarini tanlab ta'qiqlash;

SI bilan jihozlangan quroldan foydalanishning aniq qoida va tamoyillari;

SI bilan jihozlangan qurollardan foydalanish tartib qoidalari;

SI bilan jihozlangan qurollardan noqonuniy, xalqaro huquqqa zid holda foydalanganlik uchun javobgarlik qoidalari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alarie B., Aidid A. The Legal Singularity: How Artificial Intelligence Can Make Law Radically Better. University of Toronto Press. 2023. 226 pages.
2. Abbosov M.M. Jinoyat qonunchiligida sun'iy intellekt tushunchasi va ijtimoiy xavfliligi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari №4 (5) – Toshkent-2025. 375 – 382-betlar. <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N58>
3. Hubig C. Benefits and Limits of Autonomous Systems in Public Security // European Journal for Security Research. 2019. P. 1–13.
4. Turing A.M. “Intelligent Machinery” a Report. London: National physical laboratory. 1948. 23 pages.
5. Бозаров С.С. Сунъий интеллект доирасида ҳуқуқий жавобгарлик. Дис... ю.ф.д. Тошкент – 2023 й. 242 бет.
6. Морхат П. М. Искусственный интеллект: правовой взгляд: научная монография. М., 2017. 257 с.
7. Мосечкин И. Н. Искусственный интеллект в уголовном праве: перспективы совершенствования охраны и регулирования: [монография]. – Киров: Вятский государственный университет, 2020. – 111 с.
8. Отажонов А.А. Сунъий интеллект: жиноий жавобгарлик ва қонунчиликни тартибга солиш истиқболлари // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 6 (2024), Б. 54-69.